XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING QARORI

2024 - yil 29 - yanvar 18-12-180-Q/24 Urganch shahar hokimligi

Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 12-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–208-sonli Farmonining ijrosi haqida

“Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ishlarni yanada takomillashtirish va viloyat hokimining 2024-yil 12-yanvardagi 11-12-0-Q/24-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–208-sonli Farmoni rahbarlik hamda ijro uchun qabul qilinsin va ushbu Farmonga muvofiq:

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – qo‘mita) bo‘ysunuvi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazilganligi;

Qo‘mita raisi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o‘rinbosarlari – viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari lavozimi;

tuman (shahar)lar hokimlarining o‘rinbosarlari – tuman (shahar)lar oila va xotin-qizlar bo‘limlari boshliqlari lavozimi kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Urganch shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov, Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Sapayev):

Qo‘mitaning tuman (shahar)lar bo‘limlari xodimlari Xorazm viloyati oila va xotin-qizlar boshqarmalari orqali markazlashgan tarzda moliyalashtirilishini,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari rahbarlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o‘rinbosarlari, tuman (shahar)lar oila va xotin-qizlar bo‘limlari rahbarlari – tuman (shahar)lar hokimlarining o‘rinbosarlari hisoblanishini,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari xodimlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari xodimlari, tuman (shahar)lar oila va xotin-qizlar bo‘limlari xodimlariga tuman (shahar)lar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limlari xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash shartlari tatbiq etilganligini inobatga olsin.

3. Urganch shahar hokimligining tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (Z.Saburov) shahar oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i tibbiy va transport xizmat ko‘rsatish shartlariga ko‘ra tegishlicha shahar hokimining o‘rinbosariga tenglashtirilganligini inobatga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Urganch shahar hokimining o‘rinbosari B.Berdiyeva zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**